



THE IMPACT OF THE DECREASE IN WATER VOLUME IN THE AYDAR-ARNASAY LAKE SYSTEM ON THE ENVIRONMENT

Ozoda Amonovna Adilova

Associate Professor

Department of Geography and Fundamentals of Economic Knowledge

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

Sarvinoz Murtazayeva

2nd-year Master's student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Landscape, degradation, soil, natural ecosystems, pollution, waste.

Received: 02.12.25

Accepted: 04.12.25

Published: 06.12.25

Abstract: In this article, natural landscapes are considered as a set of ecological, economic and aesthetic elements of a territory formed under the influence of anthropogenic factors, and work on their protection and restoration is of great importance for environmental protection and ensuring sustainable development. The article presents theoretical and practical proposals for the protection and restoration of landscapes.

TABIIY LANDSHAFTLARNI MUHOFAZA QILISH VA TIKLASHNING NAZARIY-AMALIY JIHATLARI

Ozoda Amonovna Adilova

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası dotsenti

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

Sarvinoz Murtazayeva

JDPU 2-kurs magistr

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Landshaft, degradatsiya, tuproq, tabiiy ekotizimlar, ifloslanish, chiqindilar.

Annotatsiya: Ushbu maqolda tabiiy landshaftlar antropogen omillar ta'sirida shakllangan hududning ekologik, iqtisodiy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan elementlar

yig'indisi bo'lib, uni muhofaza qilish va tiklash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada landshaftni muhofaza qilish va tiklash bo'yicha nazariy va amaliy takliflar keltirilgan.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ И ВОССТАНОВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫХ ЛАНДШАФТОВ

Озода Амоновна Адилова

*Доцент кафедры географии и основ экономических знаний
Джизакского государственного педагогического университета
Джизак, Узбекистан*

Муртазаева Сарвиноз

*магистрантка 2 курса
Джизакского государственного педагогического университета
Джизак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	ландшафт, деградация, почва, природные экосистемы, загрязнение, отходы.	Аннотация:	В данной статье природные ландшафты рассматриваются как совокупность экологических, экономических и эстетических элементов территории, сформированных под влиянием антропогенных факторов, а работа по их защите и восстановлению имеет большое значение для охраны окружающей среды и обеспечения устойчивого развития. В статье представлены теоретические и практические предложения по защите и восстановлению ландшафтов.
------------------------	---	-------------------	--

Tabiiy landshaftlar inson hayoti uchun muhim ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiat kompleksi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda tabiiy landshaftlar inson faoliyati natijasida tashqi ta'sirga duch kelmoqda, bu o'z navbatida

tabiiy geografiyaning bir qismi bo'lgan landshaftshunoslikning oldiga yangi ilmiy va amaliy muammolarni tadqiq qilishni taqozo etmoqda.

Ular orasida eng muhim va dolzarb hisoblanganlari bu tabiiy landshaftlarning turli tashqi ta'sirlarga barqarorligini aniqlash, ularni xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanish nuqtai nazaridan baholash, inson ta'sirida o'zgarishini, bu o'zgarish qaysi yo'nalishda ro'y berishini oldindan aytib berish, prognozlash, o'zgargan va o'garishishi lozim bo'lgan landshaftlarni haqiqiy madaniy landshaftlarga aylantirish va ularning samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish lozim.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan sanoat va axborot asrida ekologik xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlash muayyan hududlardagi tabiiy landshaftlarni saqlab qolish va ularni qayta tiklash nuqtai nazaridan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki faqatgina muhofazaga olingan hududlarga tabiiy landshaft ko'rinishida qolgan tabiat kompleksi bo'lib qolmoqda, ularning noyob xususiyatlarini saqlab qolish va tiklash, balki o'zga hududlarning ekologik barqarorligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tabiiy landshaftlar muhofazasi tadbirlarini hamma joyda amalga oshirilishi zarur. Bu tamoyil tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorlikda bo'lishidan, geografik qobiqning bir butunligidan, unda modda va energiya almashinishida, gorizont va vertikal aloqalarning muhim o'rin egallashida, landshaftlarning ochiq xarakterdagi geotizim bo'lishidan kelib chiqadi. Bir butunlik, tizimlilik, tabiiy komplekslar va ularning komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir har qanday landshaftlardagi muhim xususiyatlarining saqlanishi, shu hududdagi boshqa landshaftlarning ham xususiyatlari saqlanib qolishini belgilab beradi. A.G.Isachenkoning (1991) fikricha, hozirgi zamon landshaftlarining ko'pchiligi antropogen omillar ta'sirida madaniy landshaftlarga aylantirilgan. Bunday landshaftlarning eng asosiy xususiyatlari: mahsuldorlik, iqtisodiy samaradorlik va inson hayoti uchun qulay ekologik sharoitga ega bo'lishidir. Madaniy landshaftlarni optimallashtirishdagi muhim vazifalardan biri, inson hayoti uchun qulay bo'lgan ekologik muhitni saqlash va muhofaza qilishdir. Hozirgi kunda buzilishga uchragan va uchrayotgan landshaftlardagi tabiiy muvozanatni tiklash va saqlab qolishni yaxshilashda ilmiy asosda rejalashtirilgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Landshaftlardagi ekologik muvozanatni funksional va hududiy yo'llar asosida saqlab turish mumkin. Jumladan, tabiatdan oqilona foydalanishni amalga oshirish tadbirlari, ayrim tabiiy komplekslarni to'liq va qisman qayta tiklash, ayrim komponentlarni passiv muhofazaga olish tushuniladi (N.F.Reymers, Shtilmark, 1979). Ushbu yo'lning asosiy vazifasi geotizimdagi xilma-xillikni va undagi muhit hosil qiluvchi komponentlar uyg'unligini saqlashdir. Lekin, bu yo'l bilan adirlarda shakllangan va urbanizatsiyalashayotgan madaniy landshaftlarni optimallashtirish samarasi unchalik yuqori bo'lmaydi. Chunki, bu landshaftlardagi muhit yaratuvchi komponentlar o'rtasida muvozanat ancha buzilgan bo'lib, xilma-xillik ko'rsatkichi va ularning barqarorlik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Bu landshaftlarning tabiiy muvozanatini tiklashda ikkinchi, ya'ni hududiy yo'ldan ham foydalanishning ahamiyati ortadi. Bunda landshaftlarning morfologik tuzilishini tashkil etuvchi turli darajadagi (joy, urochishche, fatsiya) kichik tabiiy hududlar komponentlarining zaruriy shart-sharoitlarini saqlash talab etiladi.

Tabiat elementlaridan ilmiy asosda rejali foydalanish ekologik havfsiz, iqtisodiy samarali natijalarga erishishga asos bo'ladi. Landshaftlarni saqlash va tiklash tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va inson hayoti uchun qulay muhit yaratishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Ammo urbanizatsiya, qishloq xo'jaligi, sanoat faoliyati va iqlim o'zgarishlari landshaftlarning degradatsiyasiga uchrashiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tabiiy landshaftlarning buzilishi tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va iqlim o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun albatta ilmiy asoslangan, keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda.

O'rganilayotgan hududdan kelib chiqib ushbu jarayonlarni oldini olish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida tadqiqotchilar tomonidan quyidagi amaliy takliflar ilgari surilmoqda:

1. Tuproq eroziyasi va degradatsiyani oldini olish bo'yicha:

- O'rmonlarni ko'paytirish va tiklash;
- Qir-adir va tog' hududlarida eroziyaning oldini olish uchun daraxt va buta ekish;
- O'rmonlarni sun'iy ravishda kengaytirish va tabiiy tiklanish jarayonlarini rag'batlantirish;
- Mavjud o'rmonlarda noqonuniy daraxt kesishni to'xtatish va monitoring tizimlarini

kuchaytirish;

- Tuproq unumdorligini oshirish;

- Yerni muntazam monitoring qilish orqali hosildorlikni pasaytiruvchi omillarni aniqlash

va bartaraf etish;

- Organik o'g'itlar va biologik faol moddalarni qo'llash orqali tuproq unumdorligini tiklash;

2. Suv eroziyasini kamaytirish uchun terassalar va drenaj tizimlarini yaratish:

- Suv resurslarini saqlash va tiklash bo'yicha choralar;

- Tabiiy suv havzalarini tiklash;

- Ko'llar va daryolar atrofidagi tabiiy o'simlik qoplamasini tiklash orqali ularning suv

sig'imini oshirish;

- Sohilbo'yi hududlarni tozalash va zarar yetkazuvchi faoliyatlarni cheklash;

- Suvni tejash texnologiyalarini joriy etish;

- Qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish va yomg'ir suvidan foydalanish tizimlarini

kengaytirish (selxonalar tashkil qilish orqali);

- Sanoatda suvni qayta ishlash texnologiyalarini tatbiq qilish;

- Ifloslanishni kamaytirish;

- Sanoat korxonalarida chiqindi suvlarni maxsus tozalash inshootlaridan o'tkazish

(ikkilamchi suvni tashkil qilish);

- Mahalliy aholiga suvni tejash va ifloslanishning oldini olish bo'yicha tushuncha va

ma'lumotlar berish;

3. Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va tiklash:

- Tabiiy hududlarni qo'riqlash va ularning ko'lamini kengaytirish;

- Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va biosfera rezervatlar sonini oshirish;
- O'simlik va hayvon turlarining tabiiy yashash muhitini saqlash uchun maxsus hududlar tashkil qilish;

- Yo'qolib borayotgan turlarni qayta tiklash;
- Mahalliy turlarni reintroduksiya qilish bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish;
- Sun'iy ko'paytirish orqali turlarni asrab-avaylash va ularni tabiiy muhitga moslashtirish;
- Antropogen omillar ta'sirni kamaytirish orqali choralarini kuchaytirish;

4. Shaharsozlikda ekologik me'yorlarga rioya qilish:

- Yashil hududlar va saylgohlarni shahar rejalashtirishning ajralmas qismi sifatida kiritish;
- Qurilish jarayonida tabiiy landshaftlarni saqlash uchun zararli texnologiyalardan voz kechish;

5. Havoni ifloslantiruvchi manbalarni qisqartirish:

- Sanoat korxonalarida ekologik texnologiyalarni qo'llash;
- Elektromobillar va jamoat transportlaridan foydalanishni joriy etish;

6. Chiqindilarni boshqarish:

- Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish tizimini yo'lga qo'yish;

- Ijtimoiy va iqtisodiy choralarni ishlab chiqish;
- Mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash;

7. Ekologik loyihalarda aholining faol ishtirokini ta'minlash va ularni rag'batlantirish:

- Daraxt ekish va landshaftlarni tiklash bo'yicha ko'ngillilik dasturlarini tashkil etish;
- Ekoturizmni rivojlantirish;
- Mahalliy hududlarda ekologik sayohatlarni yo'lga qo'yish va tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish;
- Ekoturizm orqali aholining daromad manbalarini kengaytirish va bu orqali tabiiy landshaftlarni muhofaza qilishni moliyalashtirish;

Demak, tabiiy landshaftlarni saqlash va tiklash atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq global va mahalliy muammolarni hal qilishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu takliflar davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar va loyihalar, jamoat tashabbuslari asosida amalga oshirilsa, tabiiy muhitni tiklash va kelajak avlodlarga sog'lom ekologik sharoit yaratish orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adilova, O. A. (2021). Problems of Protection and Reproduction of Trees and Bushes in Mountain Conditions of the Middle Zerafshan Valley. Nature and Science. USA, 19, 13-17.

2. Адилова, О. А. (2021). Чўлланиш жараёнини ўрганиш бўйича тадқиқот усуллар. Журнал естественных наук, 1(4).
3. Адилова, О. А. (2021). Критерии оценки процесса опустынивания в горных и предгорных территориях (на примере Губдинтау). Экономика и социум, (4-1), 550-556.
4. Alimov Z.A. Tabiatni muhofaza qilish asoslari. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2020 y
5. Berdiyev A.X., Xolmatov A.I. Tabiiy landshaftlar ekologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2021 y
6. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование //Москва, 1991.-С.66
7. Mo'minov D. G', Karimqulova M. Tabiiy landshaftlardan foydalanishning geoekologik jihatlari. "Geografiya fanining dolzarb masalalari: iqlim o'zgarishi, hududiy rivojlanish va ta'limda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 142-146 b. 23-24 may, 2025.